

Akademikdan mahorat darslari

O'zR FA akademigi, Badiiy akademiya akademigi, FA San'atshunoslik instituti bo'lim mudiri Akbar Hakimov 19-23-aprel kunlari Nukus shahrida "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" shiori ostida o'tkazilayotgan xalqaro an'anaviy tasviriy va amaliy san'at festivali doirasida bir qator tadbirlarda ishtirok etdi.





Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida festivalning ochilish marosimi, qoraqalpog'istonlik rassomlarning yangi ijodiy ishlari ko'rgazmasi, Nukus davlat pedagogika institutida magistrant va talabalarga "O'zbekiston tasviriy va amaliy san'ati tarixi" va "Tarixiy ong va san'at: yoshlarda fuqarolik pozitsiyani shakllantirish" mavzularida mahorat darslari, I.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat san'at muzeyida "XXI asrda Markaziy Osiyo san'atidagi madaniy stragtegiyalar: o'z o'zligini izlash" mavzusida ma'ruza qildi.

Mahorat darslari va ma'ruza ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi. Safar davomida iste'dodli yosh rassomlar bilan uchrashuvlar o'tkazildi.